

## BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINI METAPREDMETLI YONDASHUV ASOSIDA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

**O'rinova Ozodaxon O'ljayevna**

*Farg‘ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti kimyo kafedrası dotsenti,*

**Abdullayeva Mavsumaxon Qo‘ldashevna**

*katta o‘qituvchisi,*

*Talaba*

**Ibroximova Nozimaxon Botirjon qizi**

**Annotatsiya:** *Kimyo o‘qituvchilarini tayyorlash, mutaxassisning muhim kasbiy sifatlari darajalari bozorning zamonaviy talablariga asoslanadi. Kasbiy pedagogikaning tushunchaviy apparatida mutaxassisning muhim kasbiy sifatida uning kasbiy kompetentligi tan olinadi. Kompetentlik yondashuvi mutaxassislarni tanlash, malakasini oshirish, qayta tayyorlash va stajirovkasi kadrlar menejmentida (boshqaruvida) muhim asos hisoblanadi.*

**Аннотация:** *подготовка учителей химии, уровни важных профессиональных качеств специалиста основаны на современных требованиях рынка. В понятийном аппарате профессиональной педагогики как важной профессии специалиста признается его профессиональная компетентность. Компетентностный подход подбор, повышение квалификации, переподготовка и стажировка специалистов являются важной основой в управлении (управлении) персоналом.*

**Annotation:** *the training of chemistry teachers, the levels of important professional qualities of a specialist are based on the modern requirements of the market. In the conceptual apparatus of professional pedagogy, as an important professional of a specialist, his professional competence is recognized. The competency approach is an important foundation in Personnel Management (management) of the selection, qualification, retraining and internships of specialists.*

Bugungi kunda butun dunyoda ta‘lim muassasalari kimyo o‘qituvchilarining kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ta‘limni tashkil etish va boshqarish sohasidagi malakalarini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini aniqlash kabi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e‘tibor ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularda kimyo o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlashning nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq muammolar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mutaxassislarning zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi va uni rivojlantirib borish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. SHu bilan birgalikda “jamiyatda ta‘lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” ga katta extiyoj borligi qayd etilmoqda”.

Kasbiy ta‘lim tizimi real maqsadi kompetentli mutaxassisni shallantirish hisoblanib, u shaxs kasbiy sifatlarini rivojlantirishini nazarda tutadi. Kasbiy ta‘limning shu tariqa

shakllantirilgan maqsadi, ko'pchilik shu soha olimlarining fikricha, XXI asr global ta'limining maqsadiga mos keladi (yashashni bilish, ishlashni bilish, birga yashashni bilish, o'qishni bilish), shuningdek, o'qituvchi amaliy faoliyati real talab va shartlariga mos tushadi.

YUNESKO bo'yicha XXI asr ta'limi ta'lim oluvchilarning kompetentligini to'rt tayanch asoslarda shakllantirishi lozim: anglashga o'rganish, bajarishni o'rganish, yashashni o'rganish va bo'lishlikni o'rganish [3]. Talabning kompetentlik yondashuv assosida fundamental kasbiy faoliyatni o'zlashtirib olish darajasini baholash – demak, uning kasbiy masalalarni amalda yechish, hal qilish qobiliyatini baholash hisoblanadi. Bunda pedagogika fani va amaliyoti oldida pedagogning kasbiy kompetentligi mohiyatini real anglash muammosini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan ta'lim natijalarini qayta baholashga harakatlar boshlandi – “tayyorlanganlik”, “ma'lumotlilik”, “tarbiyalanganlik” kabi tushunchalar mohiyatan “kompetensiya”, “Kompetentlilik” kabi tushunchalar bilan almashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 20.04.2017 yildagi N PQ-2909 “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari” qarorida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, OTM larda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni perspektiv rivojlanishini hisobga olgan holda optimal sharoit yaratish, oliy ta'lim jarayoni, o'quv reja va dasturlarida yangi pedagogik texnologiyalar va ta'lim metodlarini, ilmiy-ta'lim jarayonlarining zamonaviy tashkiliy shakllarini yangilash va joriy qilish ko'rsatib o'tilgan. Zamonaviy mehnat bozori barcha jabhalar bo'yicha ko'p sonli mutaxassislarni taklif qilmoqda, ammo yuqori darajadagi raqobat sharoitlarida kasbiy tayyorgarlikka yuqori talablar ham qo'yilmoqda. Bugungi kunda raqobatbardosh mutaxassis nafaqat bazali bilim va ko'nikmalarga, balki kasbiy kompetentlikka ham ega bo'lishi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan yig'ilishidagi 2016 yildagi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari hamda 2017 yildagi iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi ma'ruzasida mutaxassislar tayyorlash kvotasiga e'tibor qaratish lozimligi, bu o'z navbatida tayyorlov sifatiga hamda ularning ish joyi bilan ta'minlanishiga yordam berishini ta'kidlagan edi. Bitiruvchiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar mehnat bozoridagi holat, shuningdek, jamiyatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, muhitning axboratlashuvi kabilardan tarkib topib boradi. O'zgaruvchan olamning ta'lim tizimida bitiruvchida shunday inisiativlik, yangilikka intiluvchanlik, mobillik, tezkorlik, egiluvchanlik, rivojlanuvchanlik va konstruktivlik kabi kasbiy sifatlar shakllantirib borilishi kerak.

So'ngi yillarda ta'limda turli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda, ular ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi, anglash faoliyatini faollashtiradi, talabalarga o'quv materialini yengil o'zlashtirishga yordam beradi, ularni o'quv materiali ustida kunaro ishlashga qiziqtiradi, ijodiy rivojlanishga sharoit yaratadi hamda shaxsga o'z-o'zini namoyon qilish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalarning shunday turiga molullik o'qitish texnologiyasi kiradi. Modulli o'qitish texnologiyasining maqsadi – ta'lim dasturlari mazmunini turli ketma-ketlikda, turli tezlik va hajmda, alohida o'quv modullaridan individual qiziqish va

imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zlashtirishi uchun tanlov sharoitini yaratishdan iborat.

Hozirgi paytda kompetent yondashuv asosida O'zbekiston Respublikasi oliy pedagogika maktabi ta'lim jarayoni uchun Oliy kasbiy ta'lim Davlat standartlari ishlab chiqilgan va joriy qilingan, unda kutiladigan ta'lim natijalari sifatida universal va kasbiy kompetensiyalar belgilab qo'yilgan. Davlat ta'lim standarti asosini modulli-kompetent yondashuv tashkil qiladi va u ish beruvchi talablariga moslangan hamda o'quv texnologiyalari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari uchun asos vazifasini ham o'taydi. Pedagogik ta'lim bakalavrining umummadaniy hamda kasbiy kompetentligini pedagog sifatida shakllantirish uchun uning pedagogik bilim va ko'nikmalarini, ta'lim jarayoni muammolarini anglab yetishini ta'minlash lozim. Modul - bu ta'lim dasturining tugallangan birligi hisoblanadi, u bitta yoki bir necha kasbiy kompetensiyalardan shakllanadi, shuningdek u ta'lim oluvchilarning bitiruvdagi bilim va ko'nikmalari nazorati hisoblanadi. Modulli yondashuv doirasidagi o'qitish kompetensiyalarga asoslangan bo'lsada, u an'anaviydan tubdan farq qiladi. Modulli o'qitish o'zida ta'limning nazariy hamda amaliy qismlarini mujassamlaydi va ularni yaxlitlaydi. Bunda umumiy hamda kasbiy kompetensiyalarning o'zlashtirish jarayonida nazariy bilimlarning o'rnini va joyiboshqacha mazmun kasb etadi, shu tariqa ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish motivlari kuchayadi. Modul asosida o'qigan bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi kompetentliklar shakllantiriladi: -yangi avlodning umumta'lim davlat ta'lim standartlarini joriy qilishga tayyorligi; -kimyo bo'yicha bazali o'quv dasturlari va elektron kurslarini turli ta'lim muassasalarida joriy qilishga tayyorligi; -ta'lim muassasalarida zamonaviy metodika va texnologiyalarni, shu jumladan, axborot texnologiyalarini konkret o'quv muassasasining o'quv-tarbiya jarayoni sifatini ko'tarish uchun joriy qilishga tayyorligi.

Demak, bo'lajak kimyo o'qituvchilarni modulli texnologiyalar asosida kasbiy tayyorlash deb, bo'lajak kimyo o'qituvchilari mustaqilligini shakllantirishga yordam beruvchi omillar birligi tushuniladi, bu bo'lajak kimyo o'qituvchilarining mohiyatli kasbiy xususiyati hisoblanadi va u kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Oliy kasbiy ta'limda modulli-kompetentlik tizimi o'quv jarayonini tashkillashtirishning ta'limiy konsepsiyasi sanaladi, unda ta'limning maqsadi sifatida talabning qator kompetensiyalari oldinga chiqadi, ularga erishish vositasi bo'lib ta'limning mazmun va tuzilishini ifodalovchi modul hisoblanadi. Bugungi kunda o'quvchining shaxsiy yutuqlari uning ta'lim jarayonidagi kompetentlik darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Demak, kompetentlikka asoslangan modulli o'qitish pirovard natijaga yo'naltirilgan. Bu shunday o'qitish bo'lib, u o'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni kompleks o'zlashtirishini, o'z faoliyatini o'z tajribasi asosida mehnat bozori talablariga mos qurishini ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent Sharq, 1998 y.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. –Toshkent: Adolat, 2017.

3. Djuraev R. Ta`limda in`erfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010 y.

4. Nishonov M., Mamajonov SH.A., Odilxo`jazoda N. Uzluksiz ta`lim tizimida kimyo o`qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammolari. “Kimyo va tovarlar kimyosi muammolari va istiqbollari” mavzuidagi VI respublika amaliy konferensiya materiallari. 246-248 betlar. 2019 yil 18-19 sentyabr. Andijon.

5. Nishonov M., Mamajonov SH.A., Odilxo`jazoda N. Bo`lajak kimyo o`qituvchilari kompetentligi turlari va ularning didaktik tahlili. Современная психология и педагогика: проблемы, анализ и результаты. Сборник материалов международной онлайн конференции. www.e-science. uz.2019. стр.355-362.